


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo aylanmasi **1505,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oylariga nisbatan **23,3 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **320,0** mlrd. so'mni (**334,9 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1185,8** mlrd. so'mni (**16,6 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **266,7** mlrd. so'mni (**24,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1505,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **23,3** % ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **78,7** % va yirik korxonalar hissasiga **21,3** % to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax sh **24,4** % ulush bilan **367,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0** % ulush bilan **13,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **1185,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **16,6 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **78,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,7 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,3 %), G'allaorol (96,7 %), Forish (99,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarmlrd. so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorl ik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1505,8	123,3	320,0	334,9	1185,8	116,7
Jizzax sh.	367,9	115,0	39,8	142,5	328,1	124,4
tumanlar:						
Arnasoy	28,9	109,5	0,4	126,3	28,6	121,0
Baxmal	365,5	222,9	258,3	498,2	107,2	105,8
G'allaorol	97,2	100,8	3,3	154,3	93,9	110,3
Sharof Rashidov	212,6	105,2	0,3	111,2	212,3	116,5
Do'stlik	44,0	105,4	1,2	88,9	42,8	117,4
Zomin	171,2	100,7	13,7	245,7	157,4	106,1
Zarbdor	47,5	112,2	0,4	30,6	47,1	126,8
Mirzacho'l	38,2	118,0	0,3	30,0	37,7	133,4
Zafarobod	20,0	101,5	0,3	99,0	19,7	112,4
Paxtakor	53,3	107,8	1,4	57,7	51,9	122,3
Forish	46,4	106,1	0,4	35,5	46,0	119,3
Yangiobod	13,2	101,8	0,2	102,6	12,9	112,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,3 m %** ga oshdi va **320,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **21,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1185,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **16,7 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **78,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (98,7 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,3 %), G'allaorol (96,7 %), Forish (99,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 21,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (10,8 %), Paxtakor (2,7 %), Baxmal (70,7 %) va Do'stlik (2,8 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2022-yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1055,3** ming so'm (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **20,7** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**1055,3** ming so'm), Baxmal (**2265,7** ming so'm), Zomin (**1012,2** ming so'm) va Sharof Rashidov (**927,3** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	1055,3	120,7
Jizzax sh.	1055,3	112,6
tumanlar:		
Arnasoy	617,2	107,9
Baxmal	2265,7	217,7
G'allaorol	549,4	98,7
Sharof Rashidov	927,3	102,5
Do'stlik	655,2	103,7
Zomin	1012,2	98,4
Zarbdor	531,6	109,5
Mirzacho'l	719,6	116,0
Zafarobod	391,9	99,7
Paxtakor	696,5	105,6
Forish	490,0	104,4
Yangiobod	457,3	100,0

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **266,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **17,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **115,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,8 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **151,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **27,0%** ga oshdi) .


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,3 mlrd.
so'm

Tuzlamalar



34,6
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



5,8
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

12,3
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



5,8
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

8,8
mlrd. so'm



Tuxum

12,1
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

19,5
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

0,7
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

3,9
mlrd. so'm



Ziravorlar

8,7
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2022-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **115,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (34,6 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **151,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **100,0 mlrd. so'mni**, qo'y va echkilar **47,7 mlrd. so'mni**, otlar **3,2 mlrd. so'mni**, parrandalar **0,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **26,2 mlrd.** so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,2 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	26248,6	102,2	26278,7	117,3
Jizzax sh.	13043,4	103,7	13043,4	118,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	186,3	102,2	186,3	117,2
Baxmal	490,0	101,8	490,0	116,8
G‘allaorol	1576,9	100,0	1576,9	114,7
Sh. Rashidov	4597,8	100,8	4597,8	115,7
Do‘stlik	901,8	102,9	901,8	118,1
Zomin	1801,3	101,8	1801,3	116,7
Zarbdor	823,5	103,4	823,5	118,6
Mirzacho‘l	976,0	97,0	976,0	111,3
Zafarobod	240,9	104,2	240,9	119,5
Paxtakor	829,2	98,9	826,2	113,5
Forish	658,4	101,6	658,4	116,6
Yangiobod	153,2	97,6	153,2	111,9

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **326,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **4,2** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **53,3** mlrd. so'mni (**8,5** % ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **273,0** mlrd. so'mni (**3,4** % ga oshdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Baxmal (**194,0%**) va Do'stlik (**105,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	326,4	104,2	53,3	108,5	273,0	103,4
Jizzax sh.	166,4	92,9	13,0	42,3	153,3	103,3
tumanlar:						
Arnasoy	0,6	101,9	0,01	54,7	0,6	102,1
Baxmal	46,2	194,0	39,9	224,6	6,2	103,6
G'allaorol	9,6	105,4	0,02	103,8	9,6	105,4
Sh. Rashidov	21,2	102,9	0,03	81,9	21,3	102,9
Do'stlik	16,6	105,9	0,01	83,2	16,6	105,9
Zomin	35,2	103,1	0,00	74,7	35,2	103,1
Zarbdor	4,4	103,1	0,00	69,3	4,4	103,1
Mirzacho'l	0,8	103,3	0,2	94,2	0,8	103,6
Zafarobod	2,3	102,2	0,00	9,5	2,3	102,6
Paxtakor	3,4	96,4	0,1	30,3	3,2	104,1
Forish	17,7	102,3	0,09	181,8	17,7	102,1
Yangiobod	1,6	102,0	0,00	23,2	1,6	102,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oylari yakuniga ko'ra, **136,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oylariga nisbatan **4,7** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,9** %), G'allaorol (**99,9** %), Forish (**99,9** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26